



5-sinf matematikadan 2-BSB savollari

1. Ifodalarning qiymatini toping. (2 ball)

1) $(629 - 259) \div 10 + (156 - 96) \times 6$

2) $(1050 \div 50 - 15) \div (246 - 61 \times 4) + (240 - 90) \div 6$

2. Zafar va Javohirda dastlab bir xil miqdorda pul bor edi. Zafar har kuni 7000 so'm, Javohir esa 5000 so'm sarfladi. Bir necha kundan so'ng Zafarda 6000 so'm, Javohirda esa Zafardan 3 baravar ko'p pul qoldi. Zafar va Javohirning har birida dastlab qanchadan pul bo'lgan? (4 ball)

3. Nafisada singlisi Jamilaga qaraganda 18000 so'm ko'p pul bor edi. Onasi Nafisaga 4000 so'm, Jamilaga esa 6000 so'm berdi. Shundan so'ng Jamilaning puli Nafisaning pulining yarmiga teng bo'lib qoldi. Dastlab Nafisada necha so'm pul bo'lgan. (4 ball)

4. 1) 11 ta shokolad 15 nafar bolaga teng taqsimlansa, har bir bola shokoladning qancha qismini oladi? Javobni oddiy kasr ko'rinishida ifodalang.

2) 22 ta nonni 15 nafar bolaga teng bo'lib bering. Har bir bola nonning qanday qismini oladi? Javobni aralash son ko'rinishida ifodalang. (2 ball)

5. Hisoblang: (3 ball)

1) $9 - 5\frac{3}{7}$; 2) $7\frac{3}{8} - 2\frac{5}{6}$; 3) $6\frac{7}{12} - 3\frac{1}{3}$.